

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya, geografiya va qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket ilmiy kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nashriyat bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof.
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, prof.
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zR FA t.f.d., prof.	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof.
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof.	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Sidoarjo'dagi Muhammadiya universiteti, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof.	SCOTT LEVI (AQSH)	Ogayo davlat universiteti, PhD, prof.
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof.	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof.	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk Universiteti
ABDULLAEVA Z (Qirg'iz Respublikasi)	OshDU k.f.n., dots.	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof.		

Tahririyat kengashi

IJTIMOY FANLAR BO'YICHA

XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof.
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc).
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof.	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof.	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots.	QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d., prof.
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.	FarDU, t.f.b.f.d., prof.
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots.		

Bo'lim boshlig'i: Mahmudov.O.V. t.f.b.f.d. (PhD), dots.

Texnik muharrir: Sheraliyeva J.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана..... 6

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari 15

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari 20

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari 25

K.P.Islamova

Sadridin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi 28

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasinging falsafiy tahlili 33

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini 37

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati..... 42

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi 47

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni 54

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili 59

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati..... 62

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis..... 70

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari..... 74

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili 78

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni 81

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati..... 85

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni 90

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari 93

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari..... 99

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili 103

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish



UO‘K: 101.1

IJTIMOY XAVFLI HARAKATLARGA MOYIL TALABALAR BILAN INDIVIDUAL ISHLASHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH MASALALARI**ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ИНДИВИДУАЛЬНОЙ РАБОТЫ СО СТУДЕНТАМИ, СКЛОННЫМИ К ОБЩЕСТВЕННО ОПАСНОМУ ПОВЕДЕНИЮ****ISSUES OF APPLYING INTERNATIONAL PRACTICES IN INDIVIDUAL WORK WITH STUDENTS PRONE TO ANTISOCIAL BEHAVIOR**

Kayumov Joxongir Alimjon o‘g‘li 
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlash mexanizmlari va texnologiyalari, ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashning nazariy-metodologik asoslari, ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlash mexanizmlari va texnologiyalarini takomillashtirishning samaradorligi o‘rganilgan. Shuningdek, ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются механизмы и технологии индивидуальной работы со студентами, склонными к общественно опасному поведению, теоретико-методические основы индивидуальной работы со студентами, склонными к общественно опасному поведению, эффективность совершенствования механизмов и технологий индивидуальной работы со студентами, склонными к общественно опасному поведению. Также анализируются вопросы использования зарубежного опыта индивидуальной работы со студентами, склонными к общественно опасному поведению.

Abstract

The article examines the mechanisms and technologies of individual work with students prone to antisocial behavior, as well as the theoretical and methodological foundations of such work. It also analyzes the effectiveness of improving these mechanisms and technologies. In addition, the article explores the use of foreign experience in individual work with students exhibiting antisocial tendencies.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, innovatsiya, ijtimoiy xavf, ijtimoiy xavfli harakatlar, individual, mexanizm, texnologiya, ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar, xavfsizlik, siyosiy, diniy, etnik, milliy.

Ключевые слова: модернизация, инновация, социальный риск, общественно опасные действия, личность, механизм, технология, студенты, склонные к общественно опасным действиям, безопасность, политическая, религиозная, этническая, национальная.

Key words: modernization, innovation, social risk, socially dangerous actions, individual, mechanism, technology, students susceptible to socially dangerous actions, security, political, religious, ethnic, national.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonining murakkab va tez o‘zgaruvchan sharoitida yoshlar muammolarini hal qilish bo‘yicha samarali davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek, bu yo‘nalishda qo‘llaniladigan mexanizm va texnologiyalarni doimiy takomillashtirib borish nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, balki umuman olganda, davlat xavfsizligini mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030-yilgacha mo‘ljallangan “Yoshlar strategiyasi”, Yoshlar manfaatlariga oid Butunjahon harakatlar dasturi kabi huquqiy va strategik hujjatlar asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, 2023-yil 11-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida o‘tkazilgan “Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida belgilangan vazifalar, mazkur masalani chuqur taqiq etish zaruratini yanada oshirmoqda.

Hozirgi kunda yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal etish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, sohada yechimini kutayotgan qator tizimli muammolar saqlanib qolayotganligi kuzatilmoqda. Shu boisdan, yoshlar siyosatining amaliy samarasini oshirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlash mexanizmlari va texnologiyalari, ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashning nazariy-metodologik asoslari va takomillashtirish masalalari, shaxs xavfsizligining ijtimoiy, ma'naviy-mafkuraviy, huquqiy, axborot-psixologik aspektlari D.Bell, J.Bolter, P.Byukenen, A.Zinoviyev, P.Kennedi, A.Toynbi, E.Toffler, S.M.Mikailov, A.I.Staxov, A.I.Parubov, S.I.Girko, V.A.Maltsev, A.N.Bosxamdjiyeva, L.L.Popov, Z.Ayupova, I.Karimov, N.Muhammadiyev, B.To'rayev, E.Ikromov, Ya.Xayrutdinov, S.Choriyev, M.Yunusov, J.Yaxshilikov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Hozirgi kunda globallashtirish jarayonining jadalligi va murakkabligi, axborot oqimining kuchayishi, shuningdek, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning kuchayib borayotgani sharoitida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish va salbiy ta'sirlardan himoya qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Afsuski, jamiyatda keng ko'lamli islohotlar olib borilayotgan bir davrda aksariyat yoshlar global miqyosda yuz berayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini yetarli darajada anglay olmayapti. Fikrlar xilma-xilligi fonida milliy qadriyatlarimizga mos yondashuvlar, tushuncha va tasavvurlar tizimining yetarlicha shakllanmagani esa, ularning ongiga begona g'oyalar, ekstremistik va radikal yo'nalishlar singib ketish xavfini oshirmoqda.

Terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, mutaassiblik, separatizm, odam savdosi, narkobiznes, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlarning kuchayishi, ayniqsa, yoshlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilik darajasining ortib borayotgani bu masalani chuqur o'rganish va tizimli yechimlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu boisdan, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish, jinoyatchilikka moyillikning sabablarini chuqur tahlil qilish bugungi kundagi muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biriga aylangan.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, aksar rivojlangan davlatlar huquqbuzarliklarning oldini olishda tizimli yondashuv, jamiyatning barcha qatlamlarini, ayniqsa, ta'lim tizimi va mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish orqali yuqori samaradorlikka erishgan. Masalan, AQShning Florida shtatida joriy etilgan yuridik ta'lim dasturi o'quvchilarda huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish, jinoyatchilik oqibatlarini haqida aniq tasavvur hosil qilishga yo'naltirilgan. Ushbu dastur doirasida maktablarga ichki ishlar organlari xodimlari jalb etiladi, ular tomonidan jinoyatlarning oldini olish yuzasidan ma'ruza va mashg'ulotlar o'tkaziladi. Darslik va metodik materiallar orqali huquqiy savodxonlikning erta bosqichda shakllanishi ta'minlanadi.

Germaniyada esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda gumanistik yondashuv ustuvorlik kasb etgan bo'lib, bu davlatda voyaga yetmagan shaxslar jinoyati ko'pincha shaxs shakllanishi bosqichi yakunlangach, tabiiy ravishda pasayishi mumkinligi asosida davlatning haddan ziyod repressiv choralar qo'llashidan tiyilishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, Germaniyada hududiy politsiya bo'linmalari qoshida o'smirlar jinoyatchiligiga oid maxsus komissariatlar faoliyat yuritib, ular jinoyatchilikni profilaktika qilish, sabablarini aniqlash va tahlil etish, ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlik qilish orqali kompleks yondashuvni ta'minlaydi.

Buyuk Britaniyada esa voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi maxsus bo'limlar faoliyatini jamoatchilik ishtiroki asosida yo'lga qo'yish amaliyoti mavjud. Politsiya maktablari, ota-onalar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyatni olib boradi. Bu yondashuv yoshlar orasida politsiyaga nisbatan ishonchni oshiradi, ularni hamfikir va hamkor sifatida ko'rsatishga xizmat qiladi.

Fransiyada esa huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha kompleks yondashuv amalga oshirilib, davlat, mahalliy hokimiyatlar, jamoatchilik va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida funksional taqsimot asosida ko'p bosqichli tizim shakllantirilgan. "Yoz-yoshlik" kabi dasturlar orqali yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali salbiy yo'nalishlarga og'ish ehtimoli kamaytirilmoqda.

Xorijiy tajriba tahlillari asosida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga oid quyidagi strategik yo'nalishlar ajratib ko'rsatiladi:

FALSAFA

Normativ-huquqiy asoslarning mustahkamligi – huquqbuzarliklarning oldini olishda ijtimoiy-huquqiy mexanizmlar, davlat va nodavlat subyektlarning integratsiyalashgan faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi;

Maxsus ixtisoslashtirilgan institutlar – voyaga yetmaganlar adliyasi, ixtisoslashtirilgan sudlar va profilaktika bo'limlari faoliyatini samarali tashkil etish zarur;

Gumanistik yondashuv – yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, tarbiyaviy va ijtimoiy rehabilitatsiyaga yo'naltirilgan yondashuvlar ustuvorligi.

O'zbekiston sharoitida esa ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashda hududlarga xizmat safarlari uyushtirish, jinoyatga moyil yoki muammoli oila farzandlari bilan bevosita muloqotga kirishish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish va ularning natijalari asosida aniq maqsadli tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, profilaktik ro'yxatdagi yoshlar bilan individual ish olib borish, ularni ma'naviy yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish zarur.

XULOSA

Targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, yot g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish, ularning Vatan taraqqiyotiga sodiq bo'lish g'oyasiga sadoqatini mustahkamlash yoshlar o'rtasida ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik ongining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarda shaxsiy va milliy manfaatlar uyg'unligini anglashga qaratilgan keng ko'lami tarbiyaviy strategiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, ularni huquqiy ong va madaniyat asosida jamiyatga moslashtirish, yuksak axloqiy fazilatlariga ega, vatanparvar, e'tiqodi mustahkam, mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishiga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Башина Т. Ф., Ильин Е. П. Психология творчества, креативности, одаренности. — СПб.: Питер, 2009.
2. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. докт.пси. наук. - М.: 2000, -С. 13.
3. Заплатинський В. М. Термінологія науки о безпеці. Zbornik prispievkov z medzinarodnej vedeckej konferencie «Bezpečnostna veda a bezpečnostne vzdelanie». – Liptovsky Mikulas: AOS v Liptovskom Mikulasi, 2006. – С.78-80.
4. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: "Знание". -1996 – 308 с.
5. Позднышев А.Н. Институт государственной службы в сфере обеспечения общественной безопасности (теоретико-методологические проблемы): дис. ... докт. юрид. наук. – М., 2003. – 402 с.